

ABU ALI IBN SINO VA UNING “ TIB QONUNLARI” ASARI XUSUSIDA

Baxriyeva Umriniso Maxsud qizi

Buxoro davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası

tayanch doktoranti

baxriyevaumriniso1712@gmail.com

914141712

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning ijodiy me'rosi hamda o'z davrining tabobatga oid barcha nazariy va amaliy bilimlarni o'z ichiga olgan mukammal tibbiy ensiklopediya sifatida yaratilgan “ Tib qonunlari” asari lingvistik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Abu Ali ibn Sino, tibbiyot, tibbiy terminlar, “Tib qonunlari” asari, leksik birliklar, til va madaniyat.

ОСОБЕННО АБУ АЛИ ИБН СИНА И ЕГО ТРУД «ЗАКОНЫ МЕДИЦИНЫ»

Абстрактный. В данной статье рассматривается творческое наследие Абу Али ибн Сины и лингвистические особенности труда «Законы медицины», который создавался как совершенная медицинская энциклопедия, содержащая все теоретические и практические знания медицины своего времени.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, медицина, медицинские термины, «Законы медицины», лексические единицы, язык и культура.

ESPECIALLY ABU ALI IBN SINA AND HIS WORK "LAWS OF MEDICINE"

Abstract. This article discusses the creative heritage of Abu Ali ibn Sina and the linguistic features of the work "The Laws of Medicine", which was created as a perfect medical encyclopedia containing all the theoretical and practical knowledge of medicine of its time.

Key words: Abu Ali ibn Sina, medicine, medical terms, "Laws of Medicine", lexical units, language and culture

Kirish. Buyuk mutafakkir, faylasuf, tibbiyot, falakiyot sohasining bilimdoni va tilshunos olim Abu Ali ibn Sino barcha davrlarda o'tgan qomusiy olimlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. U insoniyat tarixida yorqin chuqur iz qoldira olgan buyuk dahodir.

U o'z davridagi mavjud fanlarning barchasi bilan shug'ullangani va ularga oid asarlar yozgani uchun zamonlashlari tomonidan "Shayx ur-ra'is" (donishmandlar sardori), "Sharaf ul-mulk" (mamlakating sharafi), "Hujjat ul-haqq" (rostlikka dalil), "Hakim ul-vazir" (donishmand vazir) kabi nomlar bilan ta'riflangan. Ibn Sino qomusiy olim sifatida nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham katta shuhrat qozongan.

Abu Ali ibn Sinoni turli kasb egalari o'z sohalarining yetuk bilimdoni sifatida taniydilar. Shifokorlar uni buyuk tabib bo'lgan. Matematiklar uni mashhur astronom va matematik deb biladi. Adabiyotshunos hamda tilshunoslar esa uning shoir va yozuvchi, yetuk tilshunos olim bo'lganini ta'kidlaydi. Uni geologlar geologiya, musiqachilar musiqa nazariyotchisi, faylasuflar esa buyuk donishmand faylasuf sifatida biladi.

Uning tib, falsafa, ilohiyot, matematika, musiqa, adabiyot, til, mantiq kabi yo'nalishlarda yozgan asarlari chuqur o'rganilishi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"[1]

Asosiy qism. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh Ibn Mansur (967–997) davrida Buxoro tomoniga ko'chib, Hurmaysan qishlog'iga soliqlarni yig'ib oluvchi-omil amaldor etib tayinlanadi. U Afshona qishlog'ida Sitara ismli qizga uylanib ikki o'g'il farzand ko'radi. O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino), kenjasi Mahmud edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt — Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. 10 yoshga yetmasdan Ibn Sino Qur'on va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni vaqtda u hisob va aljabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi Ibn Sinoni unga shogirdlikka berdi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyotni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketdi. Ibn Sinoning aql-zakovatini ko'rgan ustozlari otasiga uni ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullantirmaslikni tayinlaydi. Shundan so'ng ota o'g'liga ilm o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi. Abu Ali tinmay mutolaa qilib, turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi. U musiqa, optika fiqh, kimyo kabi fanlarni o'qidi, xususan, tabobatni sevib o'rgandi va bu ilmda tez kamol topa boshladi.

Ibn Sinoning tib ilmida yuksak mahoratga erishishida Buxorolik boshqa bir tabib Abu Mansur al Qumriy xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino undan tabobat ilmini olib, bu ilmning ko'p sirlarini o'rgangan. Tabobat ilmini o'rganishi xususida uning o'zi "*Tib ilmi qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa fursat ichida bunda ilg'orlab ketdim. Endi xatto bilimdon tabiblar ham kelib huzurimda tib ilmdan dars oladigan bo'ldilar.*

Bemorlarni ham ko'rib turardim va shu yo'sinda orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar keng ochilib ketdiki, uni tariflab berish qiyin."[2]

Shuningdek U yunon mualliflarining, xususan, Aristotelning „Metafizika“ asarini berilib mutolaa qildi. Lekin bu kitobda bayon qilinganlarning aksariyati Ibn Sinoga tushunarsiz edi. Tasodifan yosh olimning qo'liga Abu Nasr Farobiyning „Metafizikaning maqsadlari haqida“gi kitobi tushib qoladi va uni o'qib chiqibgina Ibn Sino metafizikani o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Shunday qilib, Ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda oldi. Olimning ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlandi. U Nuh ibn Mansurga atab nafsoniy quvvatlar haqida risola, „Urjuza“ tibbiy she'riy asari, o'z qo'shnisi va do'sti Abul husayn al Aruziy iltimosiga binoan, ko'p fanlarni o'z ichiga olgan „Al hikmat al-aruziy“ („Aruziy hikmati“) asarini yozadi. Ma'lumki, Ibn Sino arab va fors tillarida 450 dan ortiq asar yozgan bo'lib, ularning aksariyati bugungi kungacha yetib kelgan. U o'zining boy ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoni, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, at-Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar.

Yevropada allomaning asarlari 12-asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o'qitila boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg'or fikrlaridan o'z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo'r hurmat bilan tilga oldilar.

Ilmiy merosining o'rganilishi. Ibn Sino ilmiy asarlarini o'rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O'zbekistonda maxsus ilmiy yo'nalish — sinoshunoslik vujudga keldi. „Tib qonunlari“ ning lotincha tarjimasini to'liq hodda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud.

Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, L. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M. U. Najotiy, A. N. Nodir, J. Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsonog'lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G'araba, M. Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o'rganishga ma'lum hissa qo'shganlar. Rossiyalik olimlardan Ye. E. Bertels, A. Ya. Borisov, I. S. Braginskiy, S. I. Grigoryan,

B. A. Petrov, B. A. Rozenfeld, V. N. Ternovskiy, A. V. Sagadeyev, M. M. Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliyev bu yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qilganlar.

O'zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Sale, P. G. Bo'lgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirganlar. T. N. Qori-Niyoziy, I. M. Mo'minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matviyevskaya, V. K. Jumayev, N. Majidov, O. F. Fayzullayev, M. B. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Rus antropologi M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykalportretini yaratgan. Andijon tibbiyot instituti xodimlari (Yu. O. Otabekov, Sh. H.Hamidullin, Ye. S. Sokolova) Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykal-byustda tasvirladilar (1965). O'zbekistonlik rassom S. Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968). Ibn Sino haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari (rej. E. Eshmuxamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov stsenariysi) "Dahoning yoshligi" tarixiy-biografik badiiy filmini (1984) yaratdilar. O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney (1707—78) doimo yashil bo'lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga Avitsennia deb atadi. O'zbekiston yerida topilgan (1956) yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avitsennit deb ataladi. Buxoro shahri va Afshona qishlog'ida Ibn Sinoga haykal o'rnatildi, Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga qo'yilgan (2000) haykal bor. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O'zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o'rta bilim yurtlariga, nashriyotga (q. Ibn Sino nomidagi nashriyot), sanatoriy, shifoxona, kutubxona, maktab, ko'cha, jamoa xujaliklari, turar joy mavzellariga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuklarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti ta'sis etilgan. O'zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tuzildi (1999-yil), "Ibn Sino" va "Sino" nomli xalqaro jurnallar nashr qilinadi.[0]

"Tib qonunlari" asaring yaratilishi tuzulishi hamda leksik xususiyatlari haqida:

Xamadon shahrida yashar ekan buyuk mutafakkir olim Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino al-Balxiy o'zining asosiy ishi – "Tib qonunlari" nomli kitobini („Tib qonunlari“ning 1-kitobini Go'rgonda, qolganlarini esa Ray vaHamadonda yashagan vaqtida yozgan (1015—1024).) yozib tugatdi. Ushbu asar arab tilida yozilgan bo'lib, besh tomdan iborat: Birinchi tom: tibbiyot ilmi – o'tkir va surunkali kasalliklarning ta'rifi, ularning tashxisi, davolanishi, jarrohlik. Ikkinchi tom: tabiiy giyohli dorilar haqida hikoyalar. Uchinchi va to'rtinchi tomlar: inson tanasidagi kasalliklar, a'zoldagi sinishlarni davolash bo'yicha tavsiyalar. Beshinchi tom: Ibn Sino tarafidan mustaqil tayyorlangan murakkab tarkibli dorilar xususiyatining ta'rifi hamda Yevropa

va Osiyodagi qadimgi tabiblarning yozuvlaridan manba sifatida foydalanilganligi haqidagi ma'lumotlar kiritilgan.

"Tib qonunlari" (arabcha: "Al-Qanun fi al-Tibb") asari tibbiyot tarixida muhim ahamiyatga ega. Ushbu asar Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi bilimlarini va tajribalarini o'z ichiga olgan keng qamrovli manba bo'lib, u o'z zamonida va keyinchalik Yevropada ham tibbiyot ta'limida asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Shuningdek ushbu asar o'zining boy leksik xususiyatlari va tibbiyot sohasidagi ilmiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Asarining tili va leksik xususiyatlari uning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Ushbu asar nafaqat tibbiyot sohasidagi, balki lingvistika va madaniyat, falsafa, biologiya, farmaseftika sohalarida qo'llaniladigan ko'plab soha mutaxassisligiga oid atamalarni qamrab olgan. Ibn Sino asarda ularni turli lingvistik vositalar orqali tushunarli tarzda bayon etgan. Asarni leksik tahlil qilish undagi atama va tushunchalarni qanday ifodalanganini hamda ularning izohini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Ushbu asarning tili va leksik xususiyatlarini quyidagi jihatlar orqali ko'rib chiqish mumkin:

1. Terminologiya. • Maxsus terminlar: Asarda tibbiyot, anatomiyaga oid ko'plab maxsus terminlar mavjud. Ibn Sino kasalliklar, belgilari, davolash usullari va dori-darmonlar uchun aniq terminlar ishlab chiqqan. • O'ziga xos atamalar: U o'z asarida yangi atamalarni yaratgan yoki mavjud atamalarga yangi ma'nolar bergan, bu esa tibbiyot sohasidagi bilimlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

2. Leksik boylik. • Sinonimlar: Ibn Sino turli sinonimlarni ishlatish orqali bir xil tushunchalarni turlicha ifodalash imkonini beradi. Bu o'quvchiga ko'proq ma'lumot beradi va matnni boyitadi. • Antonomiyalar: U kasalliklar va ularning belgilari o'rtasidagi qarama-qarshi tushunchalarni ishlatadi, bu esa o'quvchiga kasalliklarni yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

3. Uslub va ifoda. • Metaforalar va tasvirlar: Ibn Sino ba'zan tibbiy tushunchalarni yanada aniqroq ifodalash uchun metaforalardan foydalanadi. Bu leksik boylikni oshiradi va o'quvchining tasavvurini kengaytiradi. • Ritorik usullar: U o'z fikrlarini ta'kidlash uchun leksik uslublardan foydalanadi, bu esa asarning ta'sirchanligini oshiradi.

4. O'zaro bog'lanish • Atamalar o'rtasidagi bog'lanish: Tibbiyotga oid atamalar bir-biri bilan bog'liq holda ishlatiladi, bu esa o'quvchiga muayyan mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. • O'zaro aloqalar: Kasallikning sababi, belgilari va davolash usullari o'rtasidagi bog'lanish aniq ko'rsatilgan.

Asarning tuzilishi: "Tib qonunlari" asari uch bo'limdan iborat:

1. Tibbiyot nazariyasi: Bu bo'limda Ibn Sino inson organizmini, uning tuzilishi va funksiyalarini, shuningdek, kasalliklarning sabablari va ularning rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. U organizmning to'rt asosiy elementdan (yer, suv, havo, olov)

tashkil topganini ta'kidlaydi va ularning muvozanati sog'liq uchun zarurligini tushuntiradi.

2. Kasalliklar: Bu bo'limda Ibn Sino turli kasalliklarni tasniflaydi, ularning belgilari, sabablari va davolash usullarini keltiradi. U ko'plab kasalliklarni o'rganib, ularni qanday davolash mumkinligini batafsil bayon etadi.

3. Davolash usullari: Ushbu bo'limda Ibn Sino turli davolash usullarini, jumladan, dori-darmonlar, dietalar va boshqa terapevtik usullarni taqdim etadi. U dori-darmonlarning ta'sirini va ularni qanday ishlatish kerakligini tushuntiradi.

Ibn Sino o'z asarini o'z zamonidagi bilimlar, tajribalar va falsafiy yondashuvlarni birlashtirib yaratgan. Asar o'z davrida ko'plab tillarga tarjima qilingan, jumladan lotin, yunon va boshqa tillarga. Bu esa uning ta'sirini yanada kengaytirdi. Asar 12-asrda lotin tiliga tarjima qilindi va Yevropada tibbiyot ta'limida muhim manba sifatida qabul qilindi. O'rta asrlarda bu asar ko'plab Yevropa universitetlarida o'qitilgan va tibbiyot bo'yicha darslik sifatida ishlatilgan.

Xulosa. Ibn Sino dunyo ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim sifatida hali ham barhayot. Uning tibbiyot va falsafa ilmiga bag'ishlangan asarlari ushbu soha vakillari tomonidan qanchalik e'zozlansa, tilshunoslik haqidagi fikrlari ham tilshunoslar uchun asos vazifasini bajarishi shuncha bor e'tirof etiladi. Olimning "Tib qonunlari" asari nafaqat o'z zamonida, balki keyinchalik ham tibbiyot sohasida katta ta'sir ko'rsatdi. Uning nashri va tarjimasi orqali bu asar butun dunyoda tibbiyot bilimlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Asarning hozirgi kunda ham ilmiy ahamiyati beqiyos va u tibbiyot tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek ushbu asar o'zining boy leksik xususiyatlari va tibbiyot sohasidagi ilmiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Asarining tili va leksik xususiyatlari uning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Ushbu asar nafaqat tibbiyot sohasidagi, balki lingvistika va madaniyat, falsafa, biologiya, farmaseftika sohalarida qo'llaniladigan ko'plab soha mutaxassisligiga oid atamalarni qamrab olgan. Ibn Sino asarda ularni turli lingvistik vositalar orqali tushunarli tarzda bayon etgan. Asarni leksik tahlil qilish undagi atama va tushunchalarni qanday ifodalanganini hamda ularning izohini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi. Oliy Majlisga Murojaatnoma. // Xalq so'zi. №65. –B.2.
2. Ибн Аби Усайбиъа. Уюн ал-анбо фи табақот ал-атиббо. Мир,1882, 1-жилд,3-бет.
3. <https://xalq-tabobati.uz/uy/1645/maqolalar/abu-ali-ibn-sino-hayot-yoliga-nazar>